



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2023 - yil 2 - may

219-4-0-Q/23

Qashqadaryo viloyati hokimligi

**Bozorlar va savdo komplekslarining ma‘muriyati tomonidan undirib
olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar
qiymatining yangi miqdorlarini belgilash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1326-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasi, soliq boshqarmasi takliflari asosida Bozorlar va savdo komplekslarining ma‘muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlari 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat soliq boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari bilan birgalikda:

bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatining undirilishi ustidan belgilangan tartibda nazorat o‘rnatilsin;

bozorlar va savdo komplekslari hududlarida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan faoliyat olib borayotgan jismoniy shaxslarni aniqlash hamda ularni soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yishni ta‘minlasin;

bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining avtomatlashtirilgan bank tizimlari orqali to‘liq tushirish maqsadida har kuni bitta bozor va savdo kompleksida savdo joylarining sotuvchilar bilan to‘liq bandligi

kuzatib borsin va hisob-kitob qilsin;

bozorlar va savdo komplekslarining tushumlarning pasayib ketishi sabablari aniqlasin va qo‘shimcha mablag‘lar tushumlari bo‘yicha zarur choralar ko‘rsin.

3. Shahar va tumanlar hokimliklari o‘z hududlaridagi bozorlar va savdo komplekslari ma‘muriyatlari tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini to‘liq undirilishi va ulardan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirsin.

4. Viloyat hokimining 2021-yil 29-martdagi 82-4-0-Q/21-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Ushbu qaror “Qashqadaryo” va “Новости Кашкадарьи” gazetalarida e‘lon qilinsin hamda viloyat hokimligining qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror rasman e‘lon qilingan kundan kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023 yil 2 maydagi
219-4-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

2023-yil uchun bozorlar va savdo komplekslari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hamda infratuzilmadan foydalanganlik uchun to'lanadigan yig'imlar miqdorlari

t/r	Mahsulot turi	O'lchov birligi	2023 yil		
			Qarshi sh Shaxrisabz sh.	G'uzor, Qamashi, Qarshi, Koson, Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog' tumanlari	Dehqonobod, Kasbi, Nishon, Mirishkor, Muborak tumanlari
1.	Mahsulotlarni savdo o'rinlarida sotish:	-			
1.1.	Mevalar: Ho'l mevalar: olma, anor, nok, shaftoli, anjir, olxo'ri, gilos, ko'k va qizil sulton, o'rik, uzum, olcha, qulupnay, malina, apelsin, mandarin, limon, banan, ananas, kivi va h.k.) hamda chet eldan keltirilgan boshqa ho'l mevalar.	1 o'rin/kunga	9 000	8 000	7 000
	Quruq mevalar: turshak, bargak, mayiz, yong'oq, yeryong'oq, bodom, pistalar, sho'r danak va h.k.	1 o'rin/kunga	11 000	10 000	9 000
1.2.	Sabzavotlar: kartoshka, piyoz, karam, sabzi, sarimsoq, lavlagi, sholg'om, bulg'or qalampiri, baqlajon, boyimjon, patisson, pomidor, bodring (shu jumladan, issiqxonalarda yetishtirilgan pomidor va bodring va h.k. hamda pishirilgan jo'xori	1 o'rin/kunga	7 000	5 000	4 000
1.3.	Poliz mahsulotlari: handalak, qovun, tarvuz, qovoq (6 kv.metr gacha)	1 o'rin/kunga	10 000	9 000	8 000
1.4.	Don mahsulotlari: guruch, kungaboqar, yormalar (krupa), bug'doy, suli, arpa va h.k.	1 o'rin/kunga	10 000	9 000	7 000
1.5.	Dukkakli mahsulotlar: mosh, loviya, no'xat va h.k..	1 o'rin/kunga	10 000	9 000	8 000

1.6.	Sut mahsulotlari: sut, qatiq, qaymoq, smetana, uy pishlog'i, suzma va h.k.	1 o'rin/kunga	6 000	5 000	4 000
1.7.	Tuzlamalar: karam, bodring, pomidor va h.k.	1 o'rin/kunga	10 000	7 000	6 000
1.8	Zirotar va dorivorlar (zira, murch, qalampir, va h.k)	1 mashina	6 000	5 000	4 000
1.9	Ko'katlar (shu jumladan, issiqxonalarda yetishtirilganlar)	1 o'rin/kunga	7 000	6 000	5 000
1.10.	Tuxum	1 o'rin/kunga	7 000	6 000	5 000
1.11.	Gullar va ko'chatlar	1 o'rin/kunga	5 000	3 000	3 000
1.12.	Non mahsulotlari: (obi non, patir va h.k.)	1 o'rin/kunga	5 000	4 000	4 000
1.13.	Uyda tayyorlangan konservalangan mahsulotlar, pazandalik mahsulotlari va uy sharoitida tayyorlangan qandolatchilik mahsulotlari	1 o'rin/kunga	9 000	8 000	7 000
1.14.	Sanoat yo'li bilan chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari va salqin ichimliklar	1 o'rin/kunga	12 000	10 000	9 000
1.15.	Milliy taomlar	1 o'rin/kunga	14 000	12 000	10 000
1.16.	Polietilen va qog'oz paketlar, savatlar va posilka qutilar	1 o'rin/kunga	9 000	7 000	5 000
1.17.	Supurgi	1 o'rin/kunga	8 000	6 000	5 000
1.18.	Tirik baliq	1 o'rin/kunga	14 000	13 000	12 000
1.19.	Xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi va kosibchilik tovarlari	1 o'rin/kunga	5 000	4 000	4 000
2.	Go'sht mahsulotlari: mol, kuy, chuchka va boshqa hayvonlar gushtlari, dumba, jigar	1 o'rin/kunga	18 000	15 000	14 000
3.	Mahsulotlarini avtomashinalardan sotish:				
	yengil avtomashinalardan	1 mashina	11 000	10 000	9 000
	yuk avtomashinalardan	1 mashina	20 000	16 000	15 000
	tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoezdlardan	1 mashina	12 000	11 000	10 000
	mahsulotlarni yerdan sotish (savdo rastalaridan tashqarida, mahsus ajratilgan joylarda)(6 kv.metr gacha)	1 o'rin/kunga	10 000	9 000	8 000
4.	Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalar (har bir tirkama yoki yuk avtomashinasi uchun): shrot, sheluxa, kombikorma, pichan, somon, guruch poyasi va makkajo'xori poyasi va h.k.	1 mashina	25 000	22 000	21 000
5.	Qurilish materiallarini sotish:				
5.1.	Bozorlar va savdo komplekslari tomonidan maxsus ajratilgan joylarda og'ir va katta o'lchamdagi qurilish materiallarini sotish:	1 кв.м/ойида	20 000	19 000	18 000
5.2.	Kichik o'lchamdagi qurilish materiallari (mayda o'lchamli), santexnika, yoritish uskunalarini (lustra, svetilniklar va h.k.) sotish (6 kv.metr gacha)	1 o'rin/kunga	9 000	7 000	6 000
6.	Ilgari foydalanishda bo'lgan buyumlar va ehtiyot qismlarni sotish:	1 o'rin/kunga			
6.1	Avtomobillar uchun ehtiyot qismlar	1 o'rin/kunga	12 000	10 000	9 000
6.2	Uy-jihoz buyumlari va kiyim-kechaklar	1 o'rin/kunga	6 000	6 000	6 000

7.	Avtotransport vositalarini sotish:				
7.1	yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar	1 dona	55 000	40 000	30 000
7.2	yuk avtomashinalari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko'taruvchi transport vositalari	1 dona	55 000	40 000	30 000
7.3	motosikl, motoreller va mopedlar	1 dona	13 000	11 000	10 000
7.4	velosipedlar	1 dona	6 000	5 000	4 000
8.	Mol bozorlariga olib kiriladigan har bir chorva mollari uchun				
8.1.	Ot, toy, tuya	1 bosh	25 000	25 000	20 000
	bo'taloq, eshak	1 bosh	13 000	9 000	8 000
8.2.	Yirik shoxli qoramol				
	yirik shoxli qoramol (shu jumladan, sigir buzog'i bilan)	1 bosh	23 000	23 000	21 000
	Buzoq	1 bosh	17 000	17 000	15 000
8.3.	Mayda shoxli qoramol:				
	qo'y, echki (qo'y qo'zisi bilan, echki ulog'i bilan va h.k.)	1 bosh	16 000	16 000	13 000
	qo'zi, uloq	1 bosh	13 000	13 000	11 000
8.4.	Cho'chqalar va cho'chqa bolalari	1 bosh	6 000	5 000	5 000
9.	Uy parrandalari (har bir bosh uchun): kurka, tovuq, o'rdak, g'oz	1 bosh	1 000	1 000	1 000
	tovuq, kurka, o'rdak, g'oz jo'jalari	10 bosh	2 000	2 000	1 000
10.	Itlar va mushuklar	1 o'rin/kunga	3 000	3 000	2 000
11.	Manzarali qushlar va baliqlar	1 o'rin/kunga	5 000	4 000	3 000
12.	Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar uchun ozuqalar hamda tegishli aksessuarlar va buyumlar	1 o'rin/kunga	5 000	4 000	3 000
13.	Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar, shuningdek ularning ozuqalari va tegishli aksessuarlar va buyumlar, bir joyda	1 o'rin/kunga	8 000	7 000	6 000
14.	Poyabzal ta'mirlash xizmati	1 o'rin/kunga	4 000	4 000	3 000
15.	Nos sotganlik uchun	1 o'rin/kunga	5 000	5 000	4 000

Qashqadaryo viloyat hokimining
2023 yil 2 maydagi
219-4-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

2023 yil uchun bozorlar va savdo komplekslari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, bino-inshootlar va boshqa mol-mulklarni ijaraga berish hamda infratuzilmadan foydalanganlik uchun to'lanadigan yig'im(ijara to'lovlari) miqdorlari

t/r	Ko'rsatiladigan xizmatlar turi	O'lchov birligi	2023 yil		
			Qarshi sh Shaxrisabz sh.	G'uzor, Qamashi, Qarshi, Koson, Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog' tumanlari	Dehqonobod, Kasbi, Nishon, Mirishkor, Muborak tumanlari
1.	Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino va inshootlardan foydalanganlik uchun ijara to'lovi:				
1.1	Nooziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m./oyiga	35 000	23 000	21 000
1.2.	Nooziq-ovqat mahsulotlari sotish 2 va undan yuqori qavatlar uchun	1 kv.m./oyiga	35 000	23 000	21 000
1,3	Oziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m./oyiga	32 000	21 000	19 000
1.4.	Oziq-ovqat mahsulotlari sotish 2 va undan yuqori qavatlar uchun	1 kv.m./oyiga	15 000	10 000	8 000
1,5	Umumiy ovqatlanish	1 kv.m./oyiga	35 000	22 000	20 000
1.6.	Umumiy ovqatlanish 2 va undan yuqori qavatlar uchun	1 kv.m./oyiga	17 000	12 000	10 000
1,7	Maishiy xizmat ko'rsatish	1 kv.m./oyiga	15 000	10 000	7 000
1.8.	Maishiy xizmat ko'rsatish 2 va undan yuqori qavatlar uchun	1 kv.m./oyiga	8 000	6 000	5 000
1,9	Boshqa turlar (ombor, ofis, dorixona, paynet va h.k)	1 kv.m./oyiga	18 000	12 000	10 000

1.10.	Boshqa turlar (ombor, ofis, dorixona, paynet va h.k) 2 va undan yuqori qavatlar uchun	1 kv.m./oyiga	10 000	5 000	4 000
2	Inventarlarni ijaraga berish:				
2.1.	Tosh-tarozilar uchun	1 kunga	4 000	3 000	2 000
2.2.	Katta yuk tortish tarozilari uchun				
	150 kg.gacha tortadigan	1 kunga	4 000	3 000	2 000
	150 kg.dan 1500 kg.gacha tortadigan	1 kunga	12 000	10 000	8 000
2.3.	Savdo jihozlari uchun (bolta, taxtakach, pichoq, o'rindiq, voronka, patnis, savat va h.k.) (butun to'plam uchun, bunda to'plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)	1 kunga	3 000	2 000	1 000
2.4.	Maxsus ust-bosh kiyimlar uchun (xalat, etak, yenglik) (butun to'plam uchun, bunda to'plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)		2 000	1 500	1 000
2.5.	Mahsulotlar uchun brezent berish	1 kunga	4 000	3 000	2 000
2.6.	Aravachalar uchun	1 kunga	5 000	4 000	3 000
2.7.	Reklama joylashtirishga ajratilgan yer maydonidan foydalanganligi uchun (1 kv.metr)	1 kunga	3 000	3 000	2 000
2.8.	Reklama joylashtirishga ajratilgan yer maydonidan foydalanganligi uchun avtoehtiyot qismlarini sotish (1 kv.metr)	1 oyda	17 000	10 000	5 000
3	Ko'rsatiladigan xizmat turlari:				
3.1.	Qishloq xo'jalik va boshqa oziq -ovqat mahsulotlarini saqlash:				
	sovutgichlarda (har bir yashik, qop va h.k. uchun)	1 kunga	3 000	3 000	2 000
	omborxonalarda, saqlash kameralarida (har bir yashik, qop va h.k. uchun)	1 kunga	3 000	3 000	2 000
	bozor hududidagi rasatalarda va ochiq joylarda (savdo o'rni hisobidan)	1 kunga	3 000	3 000	2 000
3.2.	Buyumlarni omborlarda saqlash (bir 50x50x100 o'lchamdagi joy uchun)	1 kunga	3 000	2 000	2 000
3.3.	Mahsulotlarni tarozida tortish:				
	katta yuk tarozida	1 marta tortish	2 500	2 000	1 000
	yirik va mayda shoxli qoramolni tortish	1 marta tortish	2 500	2 000	1 000
3.4.	Avtotarozilardan foydalanish:				
	yuk ko'tarish quvvati 5 tonnadan ortiq bo'lgan tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoezdlardan:				
	yuk bilan	1 marta o'lchash	7 000	5 000	4 000

	Yuksiz	1 marta o'lchash	6 000	4 000	3 000
	yuk ko'tarish quvvati 5 tonnagacha bo'lgan tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalaridan:				
	yuk bilan	1 marta o'lchash	4 000	3 000	2 000
	Yuksiz	1 marta o'lchash	4 000	3 000	2 000
	yengil avtomashinalardan:				
	yuk bilan	1 marta o'lchash	4 000	3 000	2 000
	Yuksiz	1 marta o'lchash	4 000	3 000	2 000
	tirkamali yengil avtomashinalardan:				
	yuk bilan	1 marta o'lchash	4 000	3 000	2 000
	Yuksiz	1 marta o'lchash	4 000	3 000	2 000
3.5.	Mehmonxona xizmatidan foydalanish (1 ta joy uchun)	1 kunga	9 000	8 000	6 000
3.6.	Avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash uchun:				
	yengil avtomashinalar uchun	1 soatga	3 000	2 000	1 000
	yuk avtomashinalari uchun	1 soatga	4 000	3 000	2 000
3.7.	Hojatxona xizmatidan foydalanish	1 marta	1 000	1 000	1 000
3.8.	Telefondan foydalanish	1 marta	500	500	500
3.9.	Radiouzel orqali e'lon berish	3 marta takror	2 000	2 000	1 000
3.10.	Bozor va savdo komplekslari balansida bo'lmagan, bozor va savdo komplekslari hududida va unga tutash holatda joylashgan, bozor va savdo komplekslari hududi orqali kirib chiqish imkoniyatiga ega bo'gan noturar obyektlar egalari tomonidan bozor va savdo komplekslari infrastrukturasini (asfaltlangan va bruschatka yotqizilgan yo'laklar, trotuarlar, kirish va chiqish joylari, yer osti va yer usti kanalizatsiya lotoklari, ichki va tashqi yoritish tarmoqlari va inshootlari, ichimlik suvining sanitar-texnik bo'g'inlari, umumiy hududni qo'riqlash va tozalash, maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig'ish va olib chiqish, tashqi muhandislik-kommunikatsiya inshootlari)dan foydalanilganlik uchun yig'im. (Bozor xududida non ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etilmaydi.)	1 kv.m./oyiga	10 000	7 000	5 000

3.11.	<p>Bozor va savdo komplekslari balansida bo‘lmagan, bozor va savdo komplekslari hududida va unga tutash holatda joylashgan, bozor va savdo komplekslari hududi orqali kirib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lgan 2 va undan yuqori qavatlar uchun noturar obyektlar egalari tomonidan foydalanilganda bozor va savdo komplekslari infrastrukturasini (asfaltlangan va bruschatka yotqizilgan yo‘laklar, trotuarlar, kirish va chiqish joylari, yer osti va yer usti kanalizatsiya lotoklari, ichki va tashqi yoritish tarmoqlari va inshootlari, ichimlik suvining sanitar-texnik bo‘g‘inlari, umumiy hududni qo‘riqlash va tozalash, maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig‘ish va olib chiqish, tashqi muhandislik-kommunikatsiya inshootlari)dan foydalanilganlik uchun yig‘im. (Bozor hududida non ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlik subyektlarga tatbiq etilmaydi.) (Mulkdorga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ko‘p qavatli noturar obyektlarning 2 va qolgan qavatlaridan mulkdorning o‘zi tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuritish maqsadida foydalanilganida yuqoridagi qavatlar uchun to‘lov undirilmaydi.)</p>	1 kv.m./oyiga	5 000	3 000	2 000
-------	---	---------------	--------------	--------------	--------------